

GLOBALLASHUV JARAYONIDA ISLOMNING O‘RNI

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti,

Dinshunoslik yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Muxammadjonova Mavludaxon

Globallashuv jarayoni butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlarni olib kelayotgan va ularni bir biriga bog‘laydigan murakkab jarayondir. Bu jarayonning ta’siri nafaqat rivojlangan mamlakatlar, balki rivojlanib kelayotgan va an’anaviy madaniyatlarni saqlab qolishga intilayotgan xalqlar uchun ham muhimdir. Islom, dunyo bo‘ylab 1,9 milliarddan ortiq izdoshlariga ega bo‘lgan katta din sifatida, globallashuvda va global miqyosda o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Ushbu tezisda Islomning globallashuv jarayonidagi o‘rni, uning iqtisodiy, madaniy, siyosiy hamda texnologik sohalaridagi ta’sirini o‘rganildi.

Globallashuv va islom o‘rtasidagi aloqa: Globallashuv turli madaniyatlar va diniy aloqalarni hamda g‘oyalarni mustahkamlaydi. Islom o‘zining boy tarixi, qoldirgan keng madaniy merosi bilan dunyoga ta’sir o‘tqaza oladi. Ko‘plab musulmonlar yashaydigan o‘lkalar globallashuvning iqtisodiy va texnologik holatlarini qabul qilgan bo‘lsalarda ammo, an’ana va qadriyatlar mavzusida xususan, diniy amallar, rasm-rusumlar bobida aslilikni saqlamoqdalar. Albatta bular yaxshi lekin, bu jarayonda yoshlarning ongi va mafkuraviy bo‘shlig‘ini dinimizga yot bo‘lgan g‘oyalar egallab borayotgani kuzatilmoqda. Mafkuraviy bo‘shliqni to‘ldirish va mafkuraviy immunitetni shakllantirish barkamol avlod tarbiyasining muhim omili sanaladi. Ayniqsa, tezkor axborot asrida dinni niqob qilib olgan siyosiy kuchlar, missionerlik, ekstremistik, terroristik mazmundagi g‘oyalar uchun yo‘l ochib bermaslik muhim²⁰.

Islom va global iqtisodiyot: Bugungi kunda aynan islom mamlakatlari xususan, arab mamlakatlari dunyo iqtisodiyotining ajralmas bir bo‘lagiga aylangan. Aynan yerosti yoqilg‘i mahsulotlari neft, gaz shular jumlasidandir. Bundan tashqari, islom dinining iqtisodiyot bo‘yicha o‘ziga xos qonun qoidalari bor. Misol uchun, oldi-berdilarda foiz qo‘yish masalsini olaylik. Bugungi kunda biror bank yo‘qki foizdan holi ravishda pul beradigan. Islom o‘zining shu qonuni ya’ni ribo masalasidagi hukmi bilan dunyoda o‘z o‘rniga hamda bir qan

cha banklarga ham egadir. Bu ham iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘llarini belgilaydi. Bundan tashqari islomiy investitsiya qilish modellarini ishlab chiqish, musulmon mamlakatlarining global iqtisodiyotda yanada chuqurroq integratsiyasiga olib keldi. Islom moliyasining rivojlanish ko‘rsatkichi (IFDI) ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yilda islom moliya sanoatining jami aktivlari hajmi qariyb

²⁰ <https://iiau.uz/oz/news/751>



4,0 trillion AQSh dollariga yetgan va 2020 yilga nisbatan 17 foizga o'sgan. Hisobotga ko'ra, bu ko'rsatkich 2026 yilga borib 6 trillion dollargacha ko'tarilishi kutilmoqda. 2021 yil holatiga, 76 davlatda 566 ta islomiy bank, 50 ga yaqin davlatda 335 ta takaful (islomiy sug'urta) islomiy moliya institutlari faoliyat yuritmoqda²¹.

Islom va madaniy globallashuv: Avvalo bir narsani aytish joizki islom bag'rikeng dindir. Bu haqida Qu'roni karimda hamda hadis shariflarda ham bot-bot takrorlangan. Madaniy globallashuv deganda islom dinining an'analari boshqa joylarga borib o'rnashishi, yoki boshqa madaniyatlarning, an'ana va rasm-rusmlarning islom diniga sinkretlashuvi nazarda tutiladi. Asoan islom madaniyati o'rnatilgan joylarda rivojlanish, taraqqiyot kuzatilgani tarixdan ma'lum. Umuman olganda madaniyat so'zining o'zi ham milodiy VII asrning oxirlarida shakllangan. Payg'ambar s.a.v Madinaga hijrat qilganlaridan so'ng o'sha joydagi aholining axloqlarini, farosatlarini ko'rgan o'zga xalqlar madinalik deya atay boshlashgan va bu so'z bizning tilimizga madaniyat, madaniyatli kishi deya ishlatila boshlagan. Arab xalifaligi o'rnatilgan Andalusiyada (bugungi kunda Ispaniya) ham islom dini kirib kelgandan keyin hammomlar tashkil etilgani va bu u yerlik insonlar uchun yangilik bo'lgani tarixdan ma'lum. Yevropaning turli hudularida barpo etilgan inshootlarda ham arab me'morchiligidan foydalanilgani va hozir ham foydalanilayotgani, yoki islom diniga oid madaniy meroslar Buyuk Britaniya va boshqa hudularda saqlanilayotgani ham madaniy globallashuvga yaqqol dalil bo'ladi.

Raqamli dunyoda Islom: Texnologiyalarning rivojlanishi, nafaqat islom diniga balki barcha dinlar uchun ham juda katta foyda olib keldi. Misol uchun, veb-saytlar, geografik joylashuvidan qat'iy nazar har qanday odamga turli dinlar haqida ma'lumotlar va tushuntirishlar beradi. Shuningdek dunyo bo'ylab boshqalar bilan bog'lanish va diniy g'oyalarning tarqalishiga imkon beruvchi muhokamalar o'tkazish imkonini beradi. Televideniya turli ko'rsatuvlar orqali har bir xonadonga din haqida ma'lumot berish imkonini taqdim etadi. Lekin turli zararli taraflari ham bor axborot iste'moli bor ekan u joyda sof diniy aqidalarga oid bo'lgan yoki uning aksi bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar ham uchraydi. Bu esa butun dunyo bo'yab islom dini haqida noo'rin fikrlarni keltirib chiqaradi. Birgina 11-sentabrda bo'lgan voqea butun dunyoga tarqalishi oqibatida ko'plab aholi orasida islamafobiya holatlari va musulmonlarga nisbatan tazyiqlarni kelib chiqishi kuzatilgan.

Islom globallashuv jarayonida muhim ahamiyat kasb etish bilan birgalikda, ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatadi. U globallashuv bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy va texnologik jihatlarda o'zaro integratsiya qiladi, global olamga hissa qo'shadi va shu bilan birga asosiy qadriyatlarini saqlashga intiladi. Globallashuv jarayoni dunyoni shakllantirishda davom etar ekan, Islomning javobi yanada ijobiy bo'ladi, zamonaviylikning talablarini diniy xarakterini saqlash bilan birga moslashtirib ham

²¹ <https://m.kun.uz/news/2023/06/13/islom-moliyasi-soglom-iqtisodiyotga-qadam?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F06%2F13%2Fislom-moliyasi-soglom-iqtisodiyotga-qadam>



boradi. Islomning globallashuvda keyingi roli esa albatta musulmonlarga bog‘liq bo‘lib qoladi.

